

2-TOM, 5-SON

FRANSUZCHA VA O'ZBEKCHA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA MILLIY
XARAKTERNING IFODALANISHI

Muqumov Toshqobil Bozor o'g'li

SamDChTI o'qituvchisi

Fransuz tili qofiyadosh turg'un birikmalaridagi o'ziga xoslik haqida gapirar ekanmiz, fransuz xalqining xarakteri haqida so'z yuritmay ilojimiz yo'q. Bu jihat maqollarida ham ko'rindi: *Un Normand a son dit Et son dédit*; maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak, Normandiyalik hech qachon so'zida turmaydi ya'ni vadasini bajarmaydi, degan tarjima chiqadi. Ya'ni qadimda Normandiyaliklar odatiga ko'ra vada yoki shartnoma faqat belgilangandan so'ng bir sutka ya'ni yigirma to'rt soat amal qilgan. Bu odatdan fransuz tilida quyidagi kabi maqol va iboralar paydo bo'lган. Masalan yana bir fransuzcha qofiyadosh frazeologik birlikni keltirish mumkin :

Qui fit Normand,

Fit truand.

Ushbu frazemadagi *truand* so'zi mendiant ya'ni tilanchi so'zining sinonimi hisoblanadi va bu yerda soliq, to'lov vazifasida kelmoqda. Chunki qadimda Normandlar soliq yig'ishda ancha abjir bo'lган va bu holat yuqoridagi maqolning vujudga kelishiga sabab bo'lган. Yuqoridagi misollardagi Normand so'zi yoki normandiyaliklarning gap bog'lashdagi o'ziga xos odatlari fransuz xalqining mentalitetini ko'rsatib berishda asosiy mezon vazifasini o'tamoqda. Fransuz tilida nafaqat etnik nomlarga oid qofiyadosh frazeologik birliklar, balki diniy va bayramlarga oid frazemalar mavjud. Bu kabi turg'un birikmalarda fransuz xalqi hayotida muhim o'rinn olgan bayramlarga oid termenlar qatnashganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

Quand on voit à Noël les moucherons,

À Pâques on voit les glaçons;

Ushbu maqolda o'zbek tilida *agar Rojdestvoda pashshalar ko'rishsa Pasxada muz ko'radi* degan tarjima chiqadi. Lekin ushbu frazemani o'zbek tiliga talqin qilsak *Iliq qishdan keyin sovuq bahor keladi* degan ibratli fikr hosil bo'ladi. Ushbu maqoldagi *Noël* va *Pâques* so'zlari o'zbek tilida **Rojdestvo** va **Pasxa** so'zini beradi. Bu so'zlar asli o'zbekcha so'z emas, shuning uchun bu so'zlar o'zbek tiliga termin sifatida qabul qilingan. Chunki bu so'zlar ifodalaydigan tushunchalar o'zbek xalqiga xos emas, bu terminlar fransuz mentalitetga xos tushunchadir. Rojdestvo – bu fransuzlarning sevimli bayramlaridan biri



2-TOM, 5-SON

bo'lib, yigirma to'rtinchi dekabr tuni va yigirma beshinchi dekabr kuni nishonlanadi. Fransuzlarning asosiy qismi nasroniylardan iborat. Bu bayram Fransiyada keng nishonladi, chunki bu bayram xristian dinida mavjud bo'lib, o'zbeklar bu bayramni nishonlashmaydilar. Pasxa bayrami ham xristian dinidagi vakillari tomonidan nishonlanadigan bayramlardan biri hisoblanadi. Bu bayram dastavval yahudiylarga tegishli bo'lgan, keyinchalik xristian dini vakillari tomonidan ham keng nishonlana boshlandi va hozirgi kunda asosiy bayramlardan biri hisoblanadi. Bu bayram bahor oyida o'tkaziladi. Yuqoridagi qofiyadosh frazeologik birlikda bu ikki bayramning nishonlanish vaqtini inobatga olingan.

Fransuz xalqi uchun ular qish va bahor faslini eslatib turuvchi vazifasini o'tagan. O'z-o'zidan ma'lumki bu bayramlar o'zbek xalqiga tegishli emas. Chunki o'zbeklarning asosiy qismi musulmonlardan iborat va bu bayramlar islam dinida yuq. Bahorda musulmonlar Navro'z bayramini nishonlashadi. Bu bayram musulmon dunyosida yangi yil sifatida qaraladi. Fransuz tilida yuqoridagi qofiyadosh frazeologik birlikning variantdoshi mavjud bo'lib, unda ham shu o'ziga xoslikni kurish mumkin:

Noël au balcon,

Pâques au tison;

Yana bir fransuz menatlitetiga xos qofiyadosh frazeologik birlik mavjud bo'lib, undagi element fransuz xalqining kundalik yumushlaridan kelib chiqqanligini ko'rsatib turadi. Masalan:

L'hôte et le poisson,

En trois jours sont poison;

Ushbu turg'un birikmani tarjima qilsak mehmo ham, baliq ham uch kunda zaharga aylanadi degan tarjima hosil bo'ladi. O'zbek tilida bu maqolni:

Mehmonning otini asl derlar,

Uch kundan so'ng sasir derlar; – degan muqobil varianti mavjud, lekin bizni fransuzcha maqoldagi baliq so'zi va o'zbek tilidagi variantda esa ot so'zining qo'llanishi qiziqtiradi. Tahlil qiladigan bo'lsak fransuz tilidagi frazemada baliq so'zining kelishi fransuzlarning qadimiy kundalik ishi bo'lgan baliqchilik bilan bog'liq. Qadimda Fransiyaning ko'plab fuqarolari baliqchilik bilan shug'illangan va bu tilga kuchmoqda. O'zbek xalqi uchun esa ot qadimdan asosiy uy hayvoni hisoblanadi. Lekin e'tiborli tomoni shundaki, ikkala xalqda ham mehmonning izzati uch kun deb berilishidir. Shu tomonlama ikki millat o'rtaqidagi o'xshashlikni ko'rish mumkin. O'zbek tilidagi qofiyadosh birliklar doirasida ham shundaylari borki ularda o'zbek mentalitetini ifodalovchi elementlarni ko'rish mumkin. Masalan:

Har kimning ishi emas uloq ulamoq,





2-TOM, 5-SON

Madrasaga borib tuproq yalamoq;

Ushbu qofiyadosh frazeologik birlikdagi **uloq** so'zi fransuz tilida mavjud emas, chunki bu leksema o'zbek milliyligini ko'rsatuvchi so'z hisoblanadi. Uloq qadimdan o'zbek xalqi tomonidan o'tkazilib keladi. Fransuz tilida bu leksemani *course* termini orqali ifodalash mumkin yoki shunchaki termin sifatida tarjima qilmasdan olinadi. Yoki **madrasa** so'zi fransuz tilida tarjima qilinmaydi. Madrasa qadimda ta'lim olinadigan joy bo'lib, hozirgi ta'lim muassasalari vazifasini bajargan. Fransuz tilida qadimda ta'lim cherkov yoki monastirlarda berilgan, shuning uchun madrasa so'zi o'zbek mentalitetini ko'rsatuvchi leksema sifatida olinadi. Yoki:

Er-xotinning urishi,

Doka ro'molning qurishi;

Bu qofiyadosh turg'un birlikdagi ro'mol so'zi —**foulard** so'zi bilan biriladi, lekin bu so'z ro'mol so'zini to'liq ifodalamaydi. Ro'mol qadimdan o'zbek xotin-qizlarining milliy bosh kiyimi hisoblanadi. *Bo'z yaktak qichitar, Yaxshi xotin tinchitar;* Ushbu maqoldagi —yaktak so'zi ham o'zbek milliy libosini ifodalovchi leksema hisoblanadi. Fransuz tilida bu so'z mavjud emas va uni tarjima qilmasdan oladilar. Bu ham o'zbek xalqi mentalitetini ko'rsatib turuvchi so'z hisoblanadi va xulosa qilsak biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Балли Ш. Французская стилистика. – М.: ИИЛ, 1961. – 394 с.
2. Гак В.Г. Беседы о французском слове.– М.: МО, 1966. – 241-242 с.
3. Бокадорова Н.Ю. Французская лингвистическая традиция XVIII начала XIX в. Структура знания о языке. –М.: Наука, 1987. – 102-103 с.
4. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. T.: Sharq. 2005. -B.257

